

**Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik
subyektlariga kommunal xarajatlarning bir qismi uchun taqdim etilgan
kompensatsiyadan foydalanish samaradorligini baholash bo‘yicha
METODOLOGIYA**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Metodologiya Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik) tizimidagi nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun binolarni yangidan qurgan yoki o‘zining bino va inshootlarida umumiy o‘rta ta’lim faoliyatini yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlik subyektlariga kommunal xarajatlarning bir qismini(50%) qoplash uchun Davlat budjeti hisobidan taqdim etilgan kompensatsiyaning samaradorligini baholash hamda maqsadsiz foydalanilgan kompensatsiyani to‘xtatish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur metodologiyada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

axborot tizimi – Vazirlikning nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga kommunal to‘lovlar uchun kompensatsiya to‘lab berish jarayonlarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi dasturiy ta’minoti;

maqsadli ko‘rsatkichlar – nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti tomonidan ta’lim xizmatlarining barqaror va uzluksiz tashkil etilish darajasi;

monitoring qilish – nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotiga taqdim etilgan kompensatsiyadan foydalanishni kuzatish hamda tahlil qilish jarayoni;

nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti – nodavlat umumiy o‘rta ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish uchun binolarni yangidan qurgan yoki o‘zining bino va inshootlarida ta’lim faoliyatini yo‘lga qo‘ygan, tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari;

kommunal to‘lovlar – elektr energiyasi va tabiiy gaz (isitish) xizmatlaridan foydalanish xarajatlari;

nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti samaradorligini baholash – maqsadli ko‘rsatkichga erishishini monitoring qilish;

qo‘llab-quvvatlash chorasi – nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotiga hisobot oyida foydalangan kommunal to‘lovlari narxining 50 foizi miqdorida taqdim etilgan kompensatsiya;

**2-bob. Ta’lim tashkilotining samaradorligini baholash baholashda Vazirlikning
va Ta’lim tashkilotining vazifalari**

3. Ta’lim tashkilotining samaradorligini baholashda Vazirlikning vazifalari:

nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga hisobot oyida foydalangan kommunal to‘lovlar narxining 50 foizi miqdorida(bir nafar o‘quvchiga to‘g‘ri

keladigan elektr energiyasi va tabiiy gaz (isitish) xizmatlaridan foydalanish xarajatlari bo'yicha bir kunlik kompensatsiya miqdoridan kelib chiqib, bir yilda bir marotaba yuborgan arizasi asosida) Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kompensatsiya to'lash; nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlariga taqdim etilgan kommunal to'lovlar uchun kompensatsiyaning samaradorligi yuzasidan tizimli monitoringni tashkil etish; monitoring jarayonini elektron axborot tizimlari orqali shaffof tarzda amalga oshirish;

4. Ta'lim tashkilotining vazifalari:

nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari ta'lim oluvchilar va pedagog xodimlar uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish;

o'quv jarayonida o'quvchilarning xavfsizligi, sog'lig'ini ta'minlash;

o'quvchilarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;

axborot tizimi(elektron platforma)ga o'quvchilarning ma'lumotlarini to'g'ri va haqqoniy kiritish;

qonunchilikka muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

3-bob. Monitoring qilish tartibi

5. Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga taqdim etilgan kompensatsiya samaradorligini baholash yuzasidan tegishli vazirlik va idoralararo axborot almashinuvi orqali elektron platformada Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan har oyda hisobot oyidan keyingi oy yakuniga qadar elektron monitoring o'tkaziladi. Bunda, elektron monitoring quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi.

nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim xizmatlarining barqaror va uzluksiz tashkil etilish darajasi;

axborot tizimi(elektron platforma)ga o'quvchilarning ma'lumotlarini to'g'ri va haqqoniy kiritilganligi;

6. Zaruratga ko'ra, taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash chorasidan maqsadli foydalanish holati joyiga chiqqan holda ishchi guruh tononidan 10 kundan oshmagan muddatda o'rganiladi.

4-bob. Samaradorlikni baholash tartibi

7. Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga taqdim etilgan kompensatsiyaning samaradorligini baholash mazkur nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim xizmatlarining barqaror va uzluksiz tashkil etilish darajasi bilan belgilanadi.

8. Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim xizmatlarining barqaror va uzluksiz tashkil etilish darajasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$S_f = \frac{L + F + A}{3}$$

bu yerda:

S_f – nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim xizmatlarining barqaror va uzluksiz tashkil etilish darajasi;

L – litsenziyaning amal qilish holati ko'rsatkichi. Mazkur ko'rsatkich axborot tizimi orqali avtomatik tarzda aniqlanadi. Bunda ta'lim tashkilotining litsenziyasi amal qilganda "1" qiymat, litsenziya bekor qilinganda "0" qiymat qabul qiladi;

F – ta'lim faoliyatining amalga oshirilayotganligi ko'rsatkichi. Mazkur ko'rsatkich axborot tizimi orqali avtomatik tarzda aniqlanadi. Bunda ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim faoliyati amalga oshirilayotganda "1" qiymat, ta'lim faoliyati amalga oshirilmayotganda "0" qiymat qabul qiladi;

A – axborot tizimida o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligi ko'rsatkichi. Mazkur ko'rsatkich axborot tizimi orqali avtomatik tarzda aniqlanadi. Bunda hisobot oyida o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lganda "1" qiymat, mavjud bo'lmaganda "0" qiymat qabul qiladi.

Agar $S_f = 1$ bo'lsa, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim xizmatlarining barqaror va uzluksiz tashkil etilgan deb topiladi.

Agar $S_f < 1$ bo'lsa, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim xizmatlarining barqaror va uzluksiz tashkil etilmagan deb topiladi.

9. Samaradorlikni baholash natijasiga ko'ra $S_f = 1$ bo'lganda, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim xizmatlari barqaror va uzluksiz tashkil etilgan hamda kompensatsiyadan foydalanish samarali deb topiladi. Bunda hisobot oyi uchun kompensatsiya to'lovlari belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5-bob. Kompensatsiyani to'xtatish tartibi

10. Samaradorlikni baholash natijasiga ko'ra $S_f < 1$ bo'lganda, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim xizmatlari barqaror va uzluksiz tashkil etilmagan hamda kompensatsiyadan foydalanish samarasiz deb topiladi. Bunda hisobot oyi uchun kompensatsiya to'lovlari to'xtatiladi.

11. Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkiloti tomonidan oylik kompensatsiya to'lovlari qoplash uchun axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va hujjatlarning soxtaligi aniqlanganda, ta'lim tashkilotining direktori va tegishli xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi hamda ushbu tashkilot elektr energiyasi va tabiiy gaz xizmatlari uchun Davlat budjeti hisobidan oylik kompensatsiya to'lovlari qoplab beriladigan nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining qatoridan chiqariladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

12. Mazkur Metodologiyada nazarda tutilgan talablarga (normalarga) rioya qilmagan tadbirkorlik subyektlarga O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko‘riladi.